


O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligi

70820101- O'rmonchilik magistratura mutaxassisligining malaka talablari

Toshkent - 2023



ISHLAB CHIQILGAN:

- Toshkent davlat agrar universiteti;
- O‘zbekiston Respublikasi O‘rmon xo‘jaligi davlat qo‘mitasi.

TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023 yil «21» avgust dagi 367-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan.

JORIY ETILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.

Mazkur Malaka talablari “Oliy ta’lim davlat ta’lim standarti. Asosiy qoidalar”, “Oliy ta’lim davlat ta’lim standarti. Oliy ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori”, O‘zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me’yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

MUNDARIJA

T/r		bet
1.	<i>70820101 – O’rmonchilik</i> magistratura mutaxassisligining umumiy tasnifi	4
1.1	Qo‘llanish sohasi	4
1.1.1.	<i>70820101 – O’rmonchilik</i> magistratura mutaxassisligi malaka talabining qo‘llanilishi	4
1.1.2.	Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari.....	4
1.2	<i>70820101 – O’rmonchilik</i> mutaxassisligi bo‘yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarini tasnifi	4
1.2.1.	<i>70820101 -O’rmonchilik</i> mutaxassisligi bo‘yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining sohalari	4
1.2.2.	<i>70820101 - O’rmonchilik</i> mutaxassisligi bo‘yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining obyektlari	4
1.2.3.	<i>70820101 - O’rmonchilik</i> mutaxassisligi bo‘yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining turlari	5
1.2.4.	<i>70820101 – O’rmonchilik</i> mutaxassisligi bo‘yicha magistrlarning kasbiy vazifalari.....	5
2.	<i>70820101 - O’rmonchilik ta’lim</i> mutaxassisligi bo‘yicha magistrlarning kasbiy kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar.....	6
2.1	Umumiy kompetensiyalar	6
2.2.	Kasbiy kompetensiyalar.....	7
2.3	Umumiy va kasbiy kompetensiyalarini egallahni ta’minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo‘yiladigan talablar.....	7
2.3.1	Kvalifikatsiya	8
2.3.2	<i>70820101 – O’rmonchilik</i> mutaxassisligi uchun ajratilgan o‘quv fanlari, bloklar bo‘yicha soatlar va kreditlar	8
2.3.3	<i>70820101 – O’rmonchilik</i> mutaxassisligi bo‘yicha ta’lim dasturining tuzilishi.....	8
	Bibliografik ma’lumotlar.....	10
	Kelishuv varag‘i.....	11

1. 70820101–O‘rmonchilik magistratura mutaxassisligining umumiylashtirilishini tasnifi

70820101–O‘rmonchilik magistratura mutaxassisligi bo‘yicha magistrlar tayyorlash kunduzgi ta’lim shaklida amalga oshiriladi. Mutaxassislik bo‘yicha o‘qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Magistratura dasturining me’yoriy muddati 2 yil.

1.1. Qo‘llanish sohasi

1.1.1. 70820101–O‘rmonchilik magistratura mutaxassisligi malaka talabining qo‘llanilishi.

Malaka talabi 70820101–O‘rmonchilik magistratura mutaxassisligi bo‘yicha magistrlar tayyorloveli barcha oliy ta’lim muassasalari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilarini:

- mazkur magistratura mutaxassisligi bo‘yicha malaka talablari, o‘quv reja va fan dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o‘quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas‘ul hamda o‘z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta’lim muassasasining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o‘quv bo‘limi boshlig‘i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o‘qituvchilar;
- magistratura mutaxassisligining o‘quv rejasi va fan dasturlarini o‘zlashtiruvchi oliy ta’lim muassasaining talabalari;
- magistratura bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalarini;
- ta’limni boshqarish bo‘yicha vakolatli davlat organlari;
- oliy ta’lim muassasalarini moliyalashtirishni ta’minlovchi organlar;
- oliy ta’lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvechi vakolatli davlat organlari;
- kadrlar buyurtmachilarini va ish beruvechi tashkilot va korxonalar;
- oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga kirayotgan bakalavriat bitiruvchilarini va boshqa manfaatdor shaxslar.

1.2. 70820101–O‘rmonchilik mutaxassisligi bo‘yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining tavsifi

1.2.1. 70820101–O‘rmonchilik mutaxassisligi bo‘yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining sohalari:

70820101–O‘rmonchilik – “O‘rmon xo‘jaligi” ta’lim sohasiga oid mutaxassislik bo‘lib, barcha ta’limi muassasalarida mutaxassislikka oid fanlarni o‘qitish. O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy tadqiqot institutlari, markazlari, ilmiy ishlab chiqarish birlashmalarida ilmiy tadqiqot faoliyatini yuritish, o‘rmonlar mahsuldarligi va sifatini oshirish maqsadida yer, suv, energetika va moddiy-texnika resurslaridan oqilona foydalanish hamda ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirishdan iborat bo‘lgan o‘rmon xo‘jaligi tarmog‘idagi fan va ishlab chiqarish, o‘rmonchilikda ilmiy-tadqiqotlar o‘tkazish, o‘rta maxsus va oliy ta’lim muassasalarida, malaka oshirish va kadrlarni qayta tayyorlash tizimi muassasalarda maxsus fanlarni o‘qitishni tashkillashtirish kasbiy ko‘nikma, mutasaddilik qobiliyatiga yo‘naltirilgan inson faoliyatining vositalari, usullari, metodlari va uslublarining majmuasini qamrab oladi.

1.2.2. 70820101–O‘rmonchilik mutaxassisligi bo‘yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining obyektlari:

- oliy ta’lim, qayta tayyorlash va malaka oshirish, professional ta’lim muassasalarida pedagogik faoliyat;
- Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy-tadqiqot institutlari va markazlarida hamda oliy ta’lim muassasalarida ilmiy-tadqiqot faoliyatini va jarayonlar;
- yer, suv, energetika va moddiy texnik resurslar, o‘rmon xo‘jaligi ishlab chiqarishi texnikasi;
- kimyoviy va biologik vositalar;
- o‘rmon xo‘jaligi ishlab chiqarish jarayoni;

- o'rmon seleksiyasi va o'rmon urug'larini tayyorlash jarayoni;
- o'rmon daraxt va butalar turlarining assortimenti;
- o'rmon daraxt va buta o'simliklari ko'chatlari;
- tabiiy va madaniy o'rmonlar;
- o'rmon xo'jaligi korxonalari va tashkilotlarida boshqaruv tizimi;
- ilmiy tadqiqot jarayoni;
- o'quv jarayoni.

1.2.3. 70820101—O'rmonchilik mutaxassislik bo'yicha magistrler kasbiy faoliyatlarining turlari

- ilmiy-tadqiqot faoliyati;
- pedagogik faoliyat;
- loyiha- texnologik faoliyati;
- servis xizmatini ko'rsatish faoliyati;
- ishlab chiqarish-texnologik faoliyati;
- tashkiliy-boshqaruv faoliyati;

1.2.4. 70820101—O'rmonchilik mutaxassisligi bo'yicha magistrlarning kasbiy vazifalari:

70820101—O'rmonchilik mutaxassisligi bo'yicha Milliy malaka ramkasining 7-malaka darajasi hamda magistr kasbiy faoliyatlarining sohalari, obyektlari va turlariga muvofiq magistratura bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo'lishi zarur:

Ilmiy-tadqiqot va pedagogik faoliyatada:

- ilmiy, amaliy tadqiqotlarni o'tkazish, tajriba natijalarini tahlil qilish va ular asosida ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish, ilmiy yangiliklarni kashf etish;
- ilmiy maqolalar, ma'ruzalar, risola, o'quv adabiyotlar tayyorlash va tahrir qilish, o'tkazilayotgan tadqiqotlar mavzusi bo'yicha ilmiy sharhlarni ishlab chiqish, referatlar va bibliografiyalarni tuzish;
- ilmiy adabiyotlar va internet tarmog'ida eng yangi ilmiy, konstrukturlik, texnologik va ekspluatatsion yutuqlar haqidagi ma'lumotlarni maqsadga yo'naltirilgan holda qidirish va topish;
- ilmiy seminar, konferensiya va simpoziumlarni tashkil etish, o'tkazish hamda faol ishtirok etish;
- o'rmonchilik mutaxassislik mavzusi bo'yicha ilmiy loyihalarni ishlab chiqish, yechilayotgan ilmiy muammolar va topshiriqlarning konseptual va nazariy modellarini ishlab chiqish;
- o'rmon yetishtirishning progressiv texnologiyalarini tatbiq etish;
- o'rmonchilikda eksperimental izlanish ishlarini namunaviy uslubiyatga asosan mustaqil o'tkazish va ulardan olingan natijalarga ishlov berish;
- ishlanmalar bo'yicha ilmiy hisobotlar tayyorlash;
- ilmiy ishlarda zamонавиъ axborot texnologiyalaridan foydalanish;
- ilmiy seminarlar, simpoziumlar va ilmiy-amaliy konferensiylar ishida ishtirok etishi va ma'ruzalar qilish;
- innovatsion ko'rgazma yarmarkalarida ilmiy izlanishlar natijalarini namoyish etish;
- innovatsion ishlanmalarni ishlab chiqarishga tatbiq etish;
- oliy ta'llim, qayta tayyorlash va malaka oshirish, professional ta'llim muassasalarida o'rmonchilik mutaxassisligi bo'yicha pedagogik va o'quv-uslubiy faoliyat yuritish;
- o'quv jarayonini va ilmiy faoliyatni tashkil qilish, zamонавиъ axborot va pedagogik texnologiyalardan, o'qitishning texnik vositalaridan foydalaniib o'quv mashg'ulotlarini o'tkazish;
- elektron (e-learning), mobil (m-learning), masofaviy axborot texnologiya va o'quv-metodik majmualarni mukammal o'zlashtirish;
- pedagogik va ilmiy mahorati hamda malakasini muntazam oshirib borish.

Loyiha - texnologik faoliyatada:

- o'rmonchilikda loyihalarni ishlab chiqish va qo'yishda birlamchi manbalarni tayyorlash;

- o'rmon barpo etish va o'stirishning agrotexnik tadbirlari bo'yicha texnologik xaritasini tuzish;

- o'rmon barpo etish sxemasi va ko'chat o'tkazish muddatlari hamda o'stirish agrotexnologiyalarini ishlab chiqish;

- o'rmon mahsulotlari sifatini aniqlashda chet el va vatanimizda qo'llaniladigan usullari hamda asboblaridan foydalanish;

- loyiha tuzishda AKT va kompyuter texnikasidan foydalanish;

Servis xizmatini ko'rsatish faoliyatida:

- xizmat ko'rsatish sohasida me'yoriy - huquqiy hujjatlardan foydalana olish;

- o'rmonchilik sohasi bo'yicha servis xizmati ko'rsatish;

- mutaxassislarga o'rmonchilikdan maslahat berish.

Ishlab chiqarish-texnologik faoliyatida:

- o'rmon barpo etish va o'stirish, o'rmon daraxt va buta o'simliklarining ko'chatini yetishtirish ishlarida texnologik kartalardan foydalanish;

- o'rmon xo'jaliklarida o'rmon barpo etish va o'stirish, o'rmon daraxt va buta o'simliklarining ko'chatini yetishtirishning yangi texnologiyalarini tashkil etish;

- o'rmon barpo etish va yetishtirishda zamonaviy texnologiyalarini tatbiq etish;

- ishlab chiqarish jarayonlari va agrotexnik tadbirlarni bajarilish sifatini nazorat qilish;

- zamonaviy axborot texnologiyalar, kompyuter texnikalari va kommunikatsion vositalarni amaliyotda qo'llash;

- o'rmonlarni ko'paytirishda zamonaviy texnologiyalarini qo'llash;

- loyihami va dasturiy hujjatlarni ishlab chiqish qobiliyatiga ega bo'lish;

- kasbiy etika kodeksiga rioya qilish lozim.

Tashkiliy-boshqaruv faoliyatida:

- e-learning va m-learning texnologiyalari asosida korporativ o'qitishni tashkil qilish va korporativ ma'lumotlar bazasini rivojlantirish;

- ishlab chiqarish faoliyati sifatini boshqarish jarayonlarini takomillashtirish;

- ishlab chiqarish jarayonlarini samarali amalga oshirish uchun zarur bo'lgan ishlab chiqarish jarayonlari va resurslarini rejalashtirish;

- zamonaviy axborot texnologiyalari tizimini yaratish va ularning ekspluatatsiyasi bilan bog'liq bo'lgan ishlab chiqarish jarayonlari monitoringi va sifatini baholash usullari va mexanizmlarini ishlab chiqish;

- atrof-muhitni muhofaza qilish, hayot faoliyati xavfsizligi va mehnat xavfsizligi talablariga mos holda o'rmonchilikda ishlab chiqarish jarayonlari sifatini nazorat qilish monitoringini amalga oshirish;

- o'rmonchilikda ishlab chiqarish faoliyati sifatini nazorat-boshqaruvini takomillashtirish;

- axborot texnologiyalarining zamonaviy tizimidan foydalanib ishlab chiqarish jarayoni monitoringi mexanizmi va sifatini baholash uslublarini ishlab chiqish;

- atrof-muhitni muhofaza qilish, hayot faoliyati xavfsizligi va mehnat xavfsizligi talablariga mos holda o'rmonchilikda ishlab chiqarish jarayonlari sifatini nazorat qilish tizimini takomillashtirish.

2. 70820101-O'rmonchilik magistratura mutaxassisligi bo'yicha magistrlarning kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar

2.1. Umumiy kompetensiyalar:

- ilmiy dunyoqarashga doir bilimlar tizimini egallagan bo'lishi, umummetodologik fanlar asosi, iqtisodiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qilish qibiliyatiga ega bo'lishi;

- xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunishi, ilmiy tadqiqot va pedagogika metodologiyasini bilishi va undan zamonaviy ilmiy asosda kasb faoliyatida foydalana bilish;

- yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o‘z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olish;

- o‘zlashtirilgan bilimlarni ijodiy tanqidiy ko‘rib chiqish va tahlil qilishi, ulardan ilmiy faoliyatida foydalana olishi;

- o‘z faoliyatida me’yoriy-huquqiy hujjatlardan foydalana olishi, o‘zining kasbiy faoliyatida asosli mustaqil qarorlar qabul qila bilishi;

- internet tarmog‘idan axborotlarni olish, saqlash, qayta ishlashning asosiy usullari va vositalariga ega bo‘lishi, axborotni boshqarish vositasi sifatida kompyuter bilan ishslash ko‘nikmalariga ega bo‘lishi;

- axborot texnologiyalaridan foydalana olishi, axborotlashgan jamiyat sharoitida axborot texnologiyalarining mohiyati va ahamiyatini tushunish, axborot xuriji xavfi va tahdidlarni anglash, axborot xavfsizligining asosiy talablariga rioya qilish qobiliyatiga ega bo‘lishi.

2.2. Kasbiy kompetensiyalar:

- ilmiy, amaliy tadqiqotlar olib borish, tajriba natijalarini qayta ishslash va ular asosida ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish, ilmiy maqolalar tayyorlash va tahrir qilish, ilmiy seminar, konferensiya va simpoziumlarni tashkil etish, o‘tkazish, ilmiy loyihalarni ishlab chiqish ko‘nikmalariga ega bo‘lish;

- pedagogik faoliyatida axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanishni bilish;

- ta’lim sifati va samaradorligini oshirishga innovatsion yondashishni bilish;

- ilmiy faoliyati natijalari bo‘yicha davlat va xorijda e’lon qilingan loyihalarda ishtirok etish uchun loyiha tayyorlash ko‘nikmalariga ega bo‘lishi;

- davlat, nodavlat va notijorat tashkilotlari tomonidan e’lon qilingan loyihalarda ishtirok etish uchun loyiha tayyorlash malakalariga ega bo‘lishi;

- ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi;

- tashkilot, korxona va ularning aloxida bo‘linmalar tashkiliy tuzilmasini optimallashtirish, xodimlarning professional tayyorgarlik darajasini oshirib borishni tashkil qilish va boshqarish, mehnat salohiyatidan samarali foydalanishni rejalashtirish, mehnatni rag‘batlantirish tizimini yo‘lga qo‘yish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi;

- o‘rmon barpo etish va o‘stirish, o‘rmon daraxt va buta o‘simliklarining ko‘chatini yetishtirish ishlarida texnologik kartalardan foydalanish;

- o‘rmon xo‘jaliklarida o‘rmon barpo etish va o‘stirish, o‘rmon daraxt va buta o‘simliklarining ko‘chatini yetishtirishning yangi texnologiyalarini tashkil etish;

- atrof-muhitni muhofaza qilish, hayot faoliyati xavfsizligi va mehnat xavfsizligi talablariga mos holda o‘rmonchilikda ishlab chiqarish jarayonlari sifatini nazorat qilish monitoringgini amalga oshirish;

- o‘rmonchilikda ishlab chiqarish faoliyati sifatini nazorat-boshqaruvini takomillashtirish;

- axborot texnologiyalarining zamonaviy tizimidan foydalanib ishlab chiqarish jarayoni monitoringgi mexanizmi va sifatini baholashni uslublarini ishlab chiqish;

- atrof-muhitni muhofaza qilish, hayot faoliyati xavfsizligi va mehnat xavfsizligi talablariga mos holda o‘rmonchilikda ishlab chiqarish jarayonlari sifatini nazorat qilish tizimini takomillashtirish.

2.3. Umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashni ta’minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo‘yiladigan talablar.

Talabalar umumiy va kasbiy kompetensiyalar, bilim va ko‘nikmalarni egallashi o‘quv rejasiga mantiqiy ketma-ketligida kiritiladigan **majburiy va tanlov** fanlarni o‘zlashtirish, amaliyotlarni o‘tish hamda boshqa o‘quv mashg‘ulot va akademik vazifalarni bajarish yordamida amalga oshiriladi.

Majburiy fanlar – magistr mutaxassisligi bo‘yicha bevosita umumiy va kasbiy kompetentsiyalarni egallashga qaratilgan, zarur tayanch bilim va ko‘nikmalarini ta’minlaydigan fanlar majmuasidir.

Tanlov fanlar – mutaxassisligi doirasida ixtisoslashuvdan kelib chiqib chuqurlashtirilgan, qo‘sishma bilim berish, bevosita ixtisosligi uchun zarur kompetentsiyalarni kengaytirishga xizmat qiladigan, shuningdek, talabaning shaxsiy qiziqishlari, ijodiy yondashuvlari va iqtidorini qo‘llab quvvatlashga qaratilgan fanlar majmuasidir.

Mutaxassisligi bo‘yicha quyidagi amaliyotlar o‘tkaziladi:

ilmiy amaliyot – majburiy va tanlov fanlaridan nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliy (ishlab chiqarish) jarayonlari bilan uyg‘unlashtirish, tegishli amaliy ko‘nikmalar, kompetentsiyalar va malakalarni shakllantirishga qaratilgan.

2.3.1. Kvalifikatsiya: o‘rmonbegi, tadqiqotchi-pedagog.

2.3.2. 70820101–O‘rmonchilik mutaxassisligi uchun ajratilgan o‘quv fanlari, bloklar bo‘yicha soatlari va kreditlar:

O‘quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Kunduzgi ta’lim shakli uchun fanlarga ajratilgan soat	Ajratilgan kredit
Majburiy fanlar	1380	46
Tanlov fanlar	420	14
Ilmiy faoliyat	1800	60

2.3.3. 70820101–O‘rmonchilik mutaxassisligi bo‘yicha ta’lim dasturining tuzilishi:

T.r	Fanning malakaviy kodi	O‘quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Umumiy yuklamaning hajmi, soatlarda	Kredit miqdori	Semestri
1.00		Majburiy fanlar	1380	46	
1.01	ITMM1304	Ilmiy-tadqiqot metodologiyasi	120	4	1
1.02	MFO’MM1404	Maxsus fanlarni o‘qitish metodikasi	120	4	2
1.03	O’ITUM1404	O‘rmonchilikda ilmiy-tadqiqot uslublari	120	4	1
1.04	O’UKM1406	O‘rmon urug‘chiligi va ko‘chatchiligi	180	6	1
1.05	O’DBSM2404	O‘rmon daraxtlari va butalari selektsiyasi	180	6	1
1.06	O’YETM1406	O‘rmon yetishtirish texnologiyasi	180	6	2
1.07	TEO’M2404	Tog‘li yerlar o‘rmon melioratsiyasi	120	4	3
1.08	QSEO’MM2404	Qum-sahro yerlari o‘rmon melioratsiyasi	180	6	3
1.09	SEO’MM2404	Sug‘oriladigan yerlar o‘rmon	180	6	3

		melioratsiyasi			
2.00		Tanlov fanlari (3 ta fan)	420	14	2,3
		Jami:	1800		
3.00	IF2460	Ilmiy faoliyat	1800	60	1,2,3,4
3.01	ITIMD2436	Ilmiy-tadqiqot ishi va magistrlik dissertatsiyasini tayyorlash hamda himoya qilish	1080	36	1,2,3,4
3.02	IPI2412	Ilmiy-pedagogik ish	360	12	1,2,3
3.03	IATO2412	Ilmiy amaliyot (tajriba orttirish)	360	12	4
		HAMMASI:	3600	120	4

Bibliografik ma'lumotlar

UO'K: 634.9

Guruh T 55

OKS 01.040.01

Tayanch so'zlar:

kasbiy faoliyat turi, kompetensiya, modul, ta'lim yo'nalishi, kasbiy faoliyat obyekti, kasbiy faoliyat sohasi, magistraturaning o'quv reja va fan dasturi (magistratura dasturi), profil, o'qib o'rganish natijalari, o'quv davri, e-learning va m-learning texnologiyalari, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar, o'rmon barpo etish, daraxt turlarini tanlash, o'rmonchilik sohasi, baholash, sifatni baholash va nazorati, mustaqil ta'lim, ishlab chiqarish, tashkiliy-boshqaruv faoliyati, malaka amaliyoti, davlat attestatsiyasi, o'quv fanlari bloki, oliv ta'lim muassasasi, ta'lim jarayoni, texnik qabul qilish, inventarizatsiya, o'rmon bilan qoplangan maydonga o'tkazish tartiblari, ishlab chiqarish, loyihalash, ilmiy tadqiqot jarayoni, maxsus fanlarni o'qitish metodikasi, axborot-kommunikativ tizimlar, zamonaviy tadqiqot metodlari, axborot va zamonaviy pedagogik texnologiyalar, modellar va modellash, fan ishchi dasturlari, zamonaviy o'lchov asboblari, ilmiy tadqiqotlarni tashkil qilish, virtual elektron bilim manbalari, didaktika, nazariy.

Ishlab chiquvchilar, kelishilgan asosiy kadrlar iste'molchilar

ISHLAB CHIQILGAN:

Toshkent davlat agrar universiteti

Birinchi prorektor S.Y. Islamov

2023 yil « 10 » 07
M.O.



KELISHILDI:

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi
huzuridagi Oliy ta'limni rivojlantirish
tadqiqotlari markazi

Direktor

Sh.U. Yakubov

M.O.

2023 yil « 11 » 07

O'zbekiston Respublikasi
Q'rmon xo'jaligi agentligi

Direktor o'rnbosari

G'.Qurbanov

M.O.

2023 yil « 17 » 07

Andijon qishloq xo'jaligi va
agrotexnologiyalar instituti

Rektor

K.Komilov

2023 yil « 20 » 07

M.O.



O'rmon xo'jaligi ilmiy tadqiqot instituti

Direktor

S.A.Arabov

2023 yil « 17 » 07

M.O.



Toshkent Shahar hokimligi huzuridagi
Obodonlashtirish bosh boshqarmasi

Boshqaruvchi R.A.Yusupov

M.O.

2023 yil « 19 » 07



TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI
**70820101- O'rmonchilik magistratura mutaxassisligi bo'yicha malaka talablari va o'quv
rejasining ishlab chiquvchilar, turdosh oliv ta'lim muassasalari va asosiy kadrlar
iste'molchilari o'rtasida**

KELISHUV DALOLATNOMASI

Toshkent vil.

“10” 07 2023-yil

Biz quyida imzo chekuvchilar – Toshkent davlat agrar universiteti birinchi prorektori, prof. S.Y.Islamov, O'rmon xo'jaligi ilmiy tadqiqot instituti direktori S.A.Arabov, Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti rektori K.Komilov birgalikda TDAUda ishlab chiqilgan quyidagi bakalavriat ta'lim yo'nališining malaka talablari va o'quv rejasi mazmuni bilan tanishib chiqib, kelishuv haqida ushbu dalolatnomani tuzdik:

70820101- O'rmonchilik magistratura mutaxassisligi

Malaka talablari hamda o'quv rejani ishlab chiqilishida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi “O'zbekiston Respublikasi oliv ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi 5847-ton farmoni, 2017-yil 20-apreldagi “Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida” PQ-2909-ton, 2017-yil 27-iyuldagagi “Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-3151-ton, 2018-yil 5-iyundagi “Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PQ-3775-ton, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 15-iyundagi “Davlat oliv ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilish jarayonlarini tashkil etish to'g'risida”gi PQ-279-ton Qarorlariga hamda oliv ta'lim sohasini tartibga soluvchi boshqa me'yoriy-huquqiy xujjatlar, shuningdek, xalqaro talablarga asoslangan.

Mazkur malaka talablari va o'quv rejalarining ishlab chiqilishida asosiy kadrlar iste'molchilari tomonidan qo'yilgan talablar ham inobatga olingan.

Ta'lim yo'nališi bo'yicha malaka talablari o'quv reja va fan dasturlari xamda boshqa hujjatlarni yaratish uchun asos bo'lib hisoblanadi.

Ishlab chiqilgan malaka talablari va o'quv rejani o'rnatilgan tartibda tasdiqqa tavsiya etish mumkin.


**O'rmon xo'jaligi ilmiy tadqiqot instituti
direktori**


S.Arabov


Andijon qishloq xo'jaligi va
agrotexnologiyalar instituti
rektori


K.Komilov


Toshkent davlat agrar universiteti
birinchi prorektori, professor


S.Islamov